

## ZARARLI OMILLARINING ORGANIZMGA TA'SIRI

TTA Urganch filiali Jamoat salomatligi va

Umumiy gigiyena kafedrası assistenti

**Quranboyev Siroj Berdiboy o'g'li**

**Annotatsiya:** Odamlar atrof-muhit omillari bilan o'zaro ta'sir qiladi va bu o'zaro ta'sir odamlarning salomatligi, farovonligi va umumiy hayot sifatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Havoning ifloslanishi, ayniqsa, nafas yo'llari kasalliklari va saraton kasalligini keltirib chiqarishi mumkin. Suvning ifloslanishi yuqumli kasalliklarning tarqalishiga olib kelishi mumkin. Aholi salomatligini mustahkamlash va kasalliklarning oldini olishda sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish, ba'zi ekologik vaziyat o'ta tang ahvolda bo'lgan hududlarda tabbiy nazoratni yanada kuchaytirishimiz zarurligi keltirilgan.

**Kalit so'zlari:** Texnogen, radiatsiya, OITS, ekologik muxit, saraton va genetik kasalliklar, zavod-fabrikalar, transport, nurlanish, Afrika uyqu kasaligi, opistroxoz kasalligi.

Atrof-muhit omillari inson hayoti uchun muhim ro'l o'ynaydi. Shu bois atrof-muhitga nisbatan sezgir yondashuvni qo'llash, ekologik muammolarni yechimga yo'naltirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish va odamlarning salomatligi, farovonligi va hayot sifatiga zarar yetkazuvchi omillarni minimallashtirish juda muhimdir. Atrof muhit ifloslanishiga juda ko'plab sabablar va omillar bor bo'lib, ularga ko'plab sabablar keltirishimiz mumkin. Atrof muhit, xavo, suv havzalarining zaxarlanish darajasi belgilangan meyorlardan yuqori bo'lib ko'plab hududlar chiqindi xonalarga aylanmoqda.

Xavfli ekolog-muxit aholiga, ayniqsa bolalar salomatligiga salbiy ta'sir qilmoqda. Atmosfera, tuproq suvning ifloslanish natijasida bog'lar ekinlar xosildorligi

pasayishi bu esa o'z navbatida ayollar va bolalar o'rtasida turli surunkali kasalliklarning ko'payishiga asosiy sabablardan biridir. Butun dunyo muammosi va mas'uliyati bo'lgan atrof-muhitning ifloslanishi tegishli qonunlar va amaliyotlar bilan nazorat qilishga harakat qiladi.

Atrof-muhitning ifloslanishiga nisbatan umumiy chora tadbirlar:

- Chiqindilarni toifalarga ajratish va qayta ishlash
- uy va zavod mo'rilaridan chiqayotgan atrof-muhitni ifloslantiruvchi gazlar uchun filtrlardan foydalanishni ta'minlash
- O'rmon yong'inlari kabi daraxtlarning nobud bo'lishining oldini olish
- qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish
- Tibbiyot chiqindilari, ishlab chiqarish chiqindilarini suv va tuproq bilan aralashmaydigan tarzda utilizatsiya qilish
- tozalash inshootlarini, ayniqsa, sanoat zonalarida tashkil etish.

Tuproqning ifloslanishi tez-tez uchraydigan atrof-muhit ifloslanishining turlaridan biridir. Odatda tuproq unumdorligiga ta'sir qiluvchi kimyoviy moddalar kiritilishi sababli paydo bo'ladi. Ushbu kimyoviy moddalar orasida bizda mavjud eng ko'p pestitsidlar, hasharotlar va gerbitsidlar. Engil ifloslanish Yengil ifloslanish bu, ayniqsa, shaharlarda sun'iy yorug'likning haddan tashqari ko'pligi bilan bog'liq. Elektromagnit ifloslanish Bu turli xil sanoat faoliyatida elektromagnit zarralardan voz kechish uchun yuzaga keladigan atrof-muhit ifloslanishining bir turi. Bu kasalliklarni keltirib chiqarishi va tirik mavjudotlarning turli xil odatlariga ta'sir qilishi mumkin.

Yangi ekologik sharoitlarning mavjudligi inson organizmida millonlab moslanish jaroyonlarni keltirib chiqarmoqda, demak inson organizmi har qanday tabiiy sharoitda o'zini tiklash sog'aytirishi va moslashish qobiliyatiga ega. Bizning vazifamiz esa o'zini o'zi sozlovchi va tiklovchi biosistemaga turli kasalliklardan o'zini himoya qilish uchun

shar-sharoit yaratib berishdir. Aholi salomatligini mustahkamlash va kasalliklarning oldini olishda sanitariya- gigiyena talablariga rioya qilish, ba'zi ekologik vaziyat o'ta tang ahvolda bo'lgan hududlarda tabiiy nazoratni yanada kuchaytirishimiz zarur.

**Xulosa.** Inson salomatligiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi va kelajakda virusli epidemiyalarning xabarchisi bo'lishi mumkin bo'lgan yangi paydo bo'lgan virusli kasallik-bu odamning immunitet tanqisligi. Agar shunday bo'lsa, biz OITS bilan tropik yomg'irli o'rmonlardan kelib chiqadigan bir qator virusli epidemiyalarning boshlanishiga guvoh bo'lishimiz mumkin, u yerda minglab viruslar bo'lishi mumkin bo'lgan odamlarni yuqtirishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Эргашев А.Э. «Умумий экология» Тошкент, «Уқитувчи». 2003 й.
2. Константинов В.М. Экологические основы природопользования. М. 2001.
3. Kholliyev, A., Nazarova, F., & Norboyeva, N. (2021).